

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **FIZIOTERAPIYA** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi:

Fizioterapiya fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga kirish test sinovlarida oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda fizioterapiya faniga oid o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida" Nizom;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;

Fizioterapiya faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Fizioterapiya fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi:

Fizioterapiya fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi
1.1	<p>“Fizioterapiya” moduli, tushunchasi va vazifalari. Fizik omillarning klassifikatsiyasi, ta’sir mexanizmlari.</p> <p>Talabalarni “Fizioterapiya” moduli bilan tanishtirish. Fizioterapiya tarixi. Ibn Sinoning fizioterapiya sohasidagi ilmiy merosi. Umumiy va xususiy fizioterapiyani o’rganish maqsadi va vazifalari, fizik muolajalar yordamida kasallikning oldini olish. Fizik omillarning ta’sir mexanizmi. Fizioterapiyaning asosini tashkil qiluvchi fizik omillar, klassifikatsiyasi. Umumiy ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar. Fizioprofilaktika to’g’risida zamonaviy tushunchalar.</p>
1.2	<p>Doimiy va impulsli toklar.</p> <p>Galvanik toklarga fizik ta’snifi. Xujayra va to’qimalarda kechadigan biofizik jarayonlar. Odam organizmiga doimiy tokning ta’sir mexanizmi. Qo’llanilishga ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar. Elektroforez haqida tushuncha. Elektroforezning afzalligi. Elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasi. Ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar. Impulsli toklar, impuls shakllari va chastotasiga nisbatan klassifikatsiyasi (elektr uyqu, diadinamik toklar (DDT), sinusoidal modulangan toklar (SMT, amplipulsterapiya), flyuktuorizatsiya). Davolovchi ta’sir mexanizmi, ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar.</p>
1.3	<p>Elektr toki bilan davolash (o’zgaruvchan toklar va har xil turdagi elektrmagnit maydonlari).</p> <p>O’zgaruvchan toklarning fizik ta’snifit. Yuqori chastotali terapiya usullari, ularni tebranish chastotasi, energiyani yuborish usullari va apparat tuzilishiga binoan farqi (Darsonvalizatsiya, induktotermiya, ultra yuqori va o’ta yuqori chastotali toklar). O’zgaruvchan tok va yuqori chastotali tebranishlar ta’siri ostida to’qimalarda ro’y beradigan biofizik hodisalar. Franklinizatsiya. Davolash maqsadida yuqori kuchlanishli doimiy elektr maydonidan foydalanish. Franklinizatsiyaning ta’sir etuvchi omillari. Omil ta’siriga javob reaksiyalar. Har bir omilning fiziologik ta’siri. Xususiy ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar. Magnit maydonining fizik tafsifi. Doimiy, o’zgaruvchan, impulsli, “yuguruvchi” magnit maydoni manbalari. Magnit maydon ta’sir mexanizmi. Ko’rsatma, qarshi ko’rsatmalar.</p>
1.4	<p>Fototerapiya. Ultratovushterapiya. Aerzolterapiya. Baroterapiya.</p> <p>Yorug’lik bilan davolash. Yorug’lik oqimining fizik xarakteristikasi. Turli spektrdagi nurlarning biologik ta’siri. Organizmda kechadigan fotobiologik jarayonlar. Ultratovush terapiya. Fizik omil tafsifi. Muhitga qarab ultratovushni yutilishi. Ultratovushning asosiy dozimetrik parametrlarni organizmga ta’siri. Ko’rsatma, qarshi kursatmalar. Qo’llaniladigan doza va usullari.</p> <p>Aerzolterapiya haqida tushuncha, ingalyatsiya turlari va ahamiyati, qo’llaniladigan dori moddalari, aeroiono- va gidroaeroionoterapiyaning tutgan o’rni.</p> <p>Baroterapiyada qo’llaniladigan fizik omil, usullari, apparatlari, ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalari</p>
1.5	<p>Tabiiy fizik omillar. O’zbekiston kurortlari.</p> <p>Balchiq bilan davolash (peloidoterapiya). Balchiq turlari va uning tarkibi. Balchiqning asosiy fraktsiyalari va qo’llash usullari, ta’sir mexanizmi va organizm reaksiyasi. Ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar.</p> <p>Parafin va ozokeritning xususiyatlari va tarkibi. Ta’sir mexanizmi. Organizmning fiziologik reaksiyasi. Qo’llash usullari. Ko’rsatma va qarshi ko’rsatmalar.</p> <p>Suv bilan davolash. Chuchuk suv bilan davolash - gidroterapiya, mineral suv</p>

	<p>bilan davolash - balneoterapiya. Mahalliy va umumiy suv muolajalari. Suvlarning umumiy va xususiy ta'siri, tashqi va ichki qo'llanish usullari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.</p> <p>Kurortlar. Kurort omillari haqida tushuncha. Kurort omillariga asoslanib kurort turlari. O'zbekiston kurortlari. Bemorlarni sanatoriy va kurortlarga yuborish uchun qarshi ko'rsatmalar.</p>
--	--

5. Fizioterapiya faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1	quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> -Shifokor atamalar, asosiy kasalliklar, ularning kechish jarayonlarni bilish; -Kasalliklar to'g'risida to'liq fikrga ega bo'lish hamda tashxislashni o'rganish -Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish; -Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati; -Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik; -O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik; -Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;
2	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> -Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik; -Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik; -Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik; -Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik; -Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil yetish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik; -Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik. -Kasalliklarni davolash chora tadbirlarini to'g'ri belgilab olish va o'tkazish.

6. Fizioterapiya fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Fizioterapiya faniga oid test varianti test topshiruvchilarning nazariy bilimlarini o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat

ta'lim standartlari, Fizioterapiya fani ta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi
Fizioterapiya	<p>Tibbiy - profilaktik faoliyatida</p>	<p>-aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish; -aholi orasida kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'luvchi xavf omillarni aniqlash va bartaraf etish; -aholi tibbiy nufuzini oshirish, ratsional ovqatlanish tamoyillari hamda zararli odatlari bartaraf etish borasida zarur chora – tadbirlarni amalga oshirish; -sog'liqni saqlash tizimida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish; -aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; fizioprofilaktika usullarini bilish, profilaktika maqsadida tabiiy fizioterapiya omollarni qo'llash\$ -tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish; -tibbiy-profilaktika faoliyatida an'anaviy tibbiyot usullaridan foydalanish. -bemorning sog'lig'i, jismoniy va ruhiy buzilishining xususiyatini aniqlash uchun bemorni tekshirish. -aholi orasida profilaktika va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sanitariya-gigiyena ma'lumotlari bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazish.</p>	1.1.1
	<p>Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida</p>	<p>-shoshilinch holatlarni o'z vaqtida aniqlash; -kasalxonagacha bo'lgan tez yordam ko'lamini aniqlash va tibbiy yordam ko'rsatish; -ko'rsatmaga ko'ra zarur mutaxassislariga va kasalxonaga yuborish; -bemorning hayotiga tahdid soladigan holatlarni (ong, nafas olish, puls, teri, ko'z qorachig'i) aniqlash, birinchi tibbiy yordamni talab qiladigan bemorning sog'lig'i holatini baholash; -shoshilinch tibbiy yordam kelguniga qadar bemorning ahvolini kuzatib boorish; -bemorga va uning yaqin qarindoshlariga psixologik yordam ko'rsatish.</p>	1.2.1
	<p>Tashxislash va davolash faoliyatida</p>	<p>-aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy tibbiyot usullari orqali tashxislash; -keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy fizioterapiya usullardan foydalangan holda to'g'ri davolash; -bemorlarni ko'rsatmaga ko'ra tor mutaxassislar bilan birgalikda tashxislash va davolash; -o'z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiy standartlaridan foydalanish.</p>	1.3.1

<p>Reabilitatsiya va dispanser nazorati faoliyatida</p>	<p>-kasalliklar bo'yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni, muddatlarini to'g'ri aniqlash; -reabilitatsiya majmualarida xalq tabobati usullarni to'liq hajmda amalga oshirish; -bemorlar o'rtasida reabilitatsiya o'tkazishda zamonaviy va xalq tabobati usullardan foydalanish; -dispanser nazorati guruhlarida umumiy amaliyoti shifokori bilan to'g'ri aniqlash va bosqichlarini o'z vaqtida amalga oshirish.</p>	<p>1.4.1</p>
<p>Ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatida</p>	<p>-ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbiiq qilish; -echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.</p>	<p>1.5.1</p>
<p>Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida</p>	<p>oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va aholining alohida guruhlari o'rtasida xavf omillarini bartaraf qilish.</p>	<p>1.6.1</p>

7. Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Usmanxodjayeva A.A., Adilov Sh.Q., Visogortseva O.N.// FOZioterapiya/ darslik// TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI/ MCHJ, Toshkent-2022-236 b.
2. /Физическая и реабилитационная медицина, Национальное руководство/краткое издание под редакцией Г.Н. Пономаренко- М.: Геотар-Медиа -2019.-512с.
3. Braddom's , PHYSICAE MEDICINE AND REHABILITATION, 16 by Elsevier, 595p.
4. Пономаренко Г.М. «Общая физиотерапия»: учебник. - 5-е изд., перераб. и доп. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2014. —. 360 с
5. «Техника и методика физиотерапевтических процедур» (справочник)/Под ред Боголюбова В.М. - М.: издательство БИНОМ, 2019.-464 с.: ил
6. Боголюбов В.М. Курортология и физиотерапия. Москва. Издательство:Бином, 2020. 408с.
7. Клаус К. Шнорренбергер Учебник китайской медицины для западных врачей, Москва, 2007г.

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.